

RUS VA INGLIZ TILLARINING SINTAKSISIDA O'XSHASHLIK VA FARQLAR

Farg'ona davlat universiteti, rus tili kafedrası o'qituvchisi

Xamidova Maxbuba Kaxarovna

Farg'ona davlat universiteti,

Chet tillari fakulteti, Filologiya va tillarni

o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Maxmudova Nigoraxon Doniyorjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola rus va ingliz tillarining sintaksis tizimini qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Rus va ingliz tillari grammatik qurilishi, gap tuzilishi va so'zlar o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan sezilarli farqlarga ega. Maqolada sintaktik birliklar – gap bo'laklari, ularning ketma-ketligi, yordamchi fe'llar ishlatilishi, negatsiya-inkor shakli, so'roq gaplar, hamda so'z tartibi muammolari qamrab olingan. Ayniqsa, rus tilining erkin sintaksisi bilan ingliz tilining qat'iy va standart tuzilmalari o'rtasidagi tafovutlar ta'limiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlil rus va ingliz tillarini o'rganuvchilar, tarjimonlar hamda chet tilini o'rgatish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqola til o'rganishdagi interferensiya holatlarini aniqlashga va ulardan qochish yo'llarini tushuntirishga qaratilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу синтаксических систем русского и английского языков. Русский и английский языки значительно различаются с точки зрения грамматического строя, структуры предложения и взаимосвязи слов. В статье рассматриваются синтаксические единицы — члены предложения, их последовательность, использование вспомогательных глаголов, формы отрицания, вопросительные предложения, а также проблемы порядка слов. Особое внимание уделено различиям между свободным синтаксисом русского языка и жёсткими стандартными конструкциями английского языка, что имеет важное значение в

образовательном контексте. Этот анализ может служить теоретической и практической основой для изучающих русский и английский языки, переводчиков, а также преподавателей иностранных языков. Кроме того, статья направлена на выявление явлений интерференции в процессе изучения языка и объяснение способов их предотвращения.

Kalit soʻzlar: rus tili, ingliz tili, sintaksis, qiyosiy tahlil, gap tuzilishi, soʻz tartibi, yordamchi feʼl, grammatika.

Ключевые слова: русский язык, английский язык, синтаксис, сравнительный анализ, структура предложения, порядок слов, вспомогательный глагол, грамматика.

Tilshunoslikda sintaksis muhim oʻrin tutadigan boʻlim boʻlib, u til birliklarining gap darajasida qanday uygʻunlashishini oʻrganadi. Har bir til oʻzining oʻziga xos sintaktik tizimiga ega boʻlib, bu tizim tildan tilga sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Rus tili va ingliz tili ushbu nuqtai nazardan juda qiziqarli taqqoslash obʻekti hisoblanadi. Rus tili flektiv tillar guruhiga mansub boʻlib, soʻzlarning morfologik shakl oʻzgarishlariga tayanadi. Ingliz tili esa analitik til boʻlib, soʻz tartibining qatʼiyligiga asoslanadi. Bugungi kunda rus va ingliz tillari xalqaro aloqalar, taʼlim, ilm-fan va ommaviy axborot vositalarida keng qoʻllaniladi. Shu sababli, ularning sintaktik tizimini chuqur oʻrganish nafaqat akademik jihatdan, balki amaliy tilda qoʻllashda ham zaruriyatdir. Qiyosiy sintaksis tahlili tarjima amaliyoti, xorijiy til oʻrganish metodikasi va lingvodidaktik tadqiqotlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Maqolada ikki til oʻrtasidagi oʻxshashlik va tafovutlar misollar bilan izohlanadi, hamda ularning til oʻrganishga taʼsiri tahlil qilinadi.

Soʻz tartibi (SVO modeli). Ingliz tilida soʻz tartibi qatʼiy SVO (Subject – Verb – Object) modeliga asoslanadi. Bu strukturani buzish gapni grammatik jihatdan notoʻgʻri qiladi yoki umuman tushunarsiz holga keltiradi. Masalan, John eats an apple – Jon olma yeydi gapida subyekt-John, feʼl-eats va obyekt-an apple aniq tartibda joylashgan. Agar bu tartib Eats John an apple tarzida oʻzgartirilsa, soʻz tartibi notoʻgʻri boʻladi. Rus tilida esa soʻz tartibi nisbatan erkinroq, chunki soʻzlarning grammatik

funksiyasi ularning morfologik shakli – ya'ni, so'roqlar va qo'shimchalar orqali belgilanadi. Shu sababli, Маша читает книгу, Книгу читает Маша, yoki Читает книгу Маша kabi variantlarning barchasi grammatik jihatdan to'g'ri, lekin urg'u va stilistik ma'noda farq qiladi.

Gap bo'laklari va ularning vazifasi. Ingliz tilida har bir gapda subyekt va predikat bo'lishi zarur. Hatto obyekt bo'lmagan gaplarda ham subyekt formal tarzda bo'lishi kerak: It is raining: Yomg'ir yog'moqda – bu yerda "it" asl subyekt emas, balki strukturaviy zaruriyat. Rus tilida esa bunday holatlarda subyekt bo'lishi shart emas: Идёт дождь – bu gapda subyekt yo'q, lekin gap to'liq va to'g'ri. Shuningdek, rus tilida gapning ayrim bo'laklari masalan, predikat-kontekstdan kelib chiqib tushirilishi mumkin: Устал. Чарчаю. – kim charchaganligi kontekstdan ayon bo'ladi. Ingliz tilida esa: I am tired. tarzida subyekt aniq ko'rsatiladi. Ingliz tilida zamonlar, inkor va so'roq shakllarni hosil qilishda esa yordamchi fe'llar muhim rol o'ynaydi: She does not know-U bilmaydi, Do you like tea?-Choy yoqadimi? They have arrived-Ular yetib kelishdi.

Yordamchi fe'l zamon va fe'lning shakliga ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga gapning strukturasi belgilaydi. Rus tilida esa zamonlar va fe'l vidlari asosan fe'lning o'z shakli orqali ifodalanadi. Bu til strukturasi yanada ixcham va morfologiyaga tayangan bo'ladi: Она не знает-U bilmaydi, Ты любишь чай? -Choy yoqadimi? Yordamchi fe'llarning doimiy ishlatilmasligi gapni soddalashtiradi, lekin ba'zida tushunishni murakkablashtiradi, ayniqsa xorijiyilar uchun. Ingliz tilida inkor uchun "not" so'zi yordamchi fe'l bilan birga ishlatiladi: He does not play, They are not coming. Rus tilida esa oddiy "не" inkor shakli yetarli bo'ladi: Он не играет, Они не идут. Qiziqarli farq: rus tilida ikki yoki undan ortiq inkor birgalikda ishlatilishi mumkin (Никто ничего не сказал – "Hech kim hech narsa demadi"), bu grammatika uchun to'g'ri. Ingliz tilida esa bu noto'g'ri bo'ladi: Nobody said nothing – bu grammatik xato sanaladi, to'g'risi: Nobody said anything.

So'roq gaplar tuzilishi. Ingliz tilida so'roq gaplar tuzishda yordamchi fe'l birinchi o'ringa chiqadi: Do you know him?, Have they left? Rus tilida esa gapning

tuzilishi o'zgarmaydi, faqat so'roq ohangi yoki so'roq olmoshlari yordamida so'roq gap hosil qilinadi: Ты его знаешь?, Они ушли? – gap oxiridagi ohangning ko'tarilishi bu gapni so'roq gapga aylantiradi. Bundan tashqari, ingliz tilida so'roq olmoshlar bilan gaplar: What are you doing?, Where do they live? kabi tuziladi. Rus tilida esa: Что ты делаешь?, Где они живут? tarzida ohang va tartib bilan hosil qilinadi.

Rus va ingliz tillari sintaksisi qator umumiyliklarga ega bo'lishiga qaramay, ularning o'ziga xos farqlari mavjud bo'lib, bu farqlarni chuqur tahlil qilish chet tilini o'rganish, tarjima qilish va o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilining qat'iy strukturasi va yordamchi fe'llarga tayanishi rus tilining erkin so'z tartibi va morfologik boyligi bilan qarama-qarshi turadi. Shuning uchun, ikki tilda ham gap tuzilishining qonuniyatlarini tushunish til o'rganuvchilarga aniq va to'g'ri muloqot qilish imkonini beradi. Shuningdek, bu tahlil o'qituvchilarga metodik yondashuvni shakllantirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bondarko A.V. Функциональная грамматика. — Санкт-Петербург: ИЛМ, 1998.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge University Press, 2003.
3. Komissarov V.N. Tarjima nazariyasi. — Moskva: Yuqori maktab, 2001.
4. Matveeva T.Yu. Rus tili xorijiy til sifatida: grammatika va amaliyot. — Sankt-Peterburg: Zlatoust, 2016.
5. Murzayev A.A. Rus va ingliz tillarining qiyosiy grammatikasi. — Toshkent: Universitet, 2018.
6. Swan M. Practical English Usage. — Oxford University Press, 2005.